



„MEZON UZ-ZAMON“ – DAVR VOQELIGINING KO‘ZGUSI SIFATIDA

Normengliyeva Dilnoza Baxtiyor qizi,
*Nukus DPI o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
4-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Hamza Allambergenov, Nukus
DPI O‘zbek adabiyoti kafedراسi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asrda yashagan yirik ma‘rifatpar, publitsist, shoir Is‘hoqxon Ibratning „Mezon uz-zamon“ asari mezonlari tahlil qilingan va undagi muammolar, kamchiliklar bugungi kun vakillariga ibrat qilib ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Is‘hoqxon Ibrat, „Mezon uz-zamon“*

XX asr boshiga kelib, Turkistonda madaniy-ma‘rifiy masalalarga jiddiy e‘tibor qaratish va shu asosda mavjud ijtimoiy qoloqlikka barham berish tarixiy zaruriyatga aylandi. Mustamlakachilar zulmi va dinni bid‘atlarga to‘ldirish bilan mashg‘ul manfaatparast mahalliy hokimiyat ma‘murlari tazyiqi tufayli dunyoqarashi, fikri torayib qolgan mahalliy aholi ongini o‘stirish, ularni mavjud tuzumni o‘zgartirishga da‘vatlash benihoya dolzarb bo‘lib qoldi. Yangilik tarafdori sifatida maydonga chiqqan jadidlar maktab-maorif tizimini isloh qilishga, madaniy-ma‘rifiy ishlarni milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan jonlantirishga kirishdilar¹. Shoir, olim, noshir, publitsist, din va jamoat arbobi Is‘hoqxon Ibrat ham davrining yirik muarrix, sinchikov munaqqidi sifatida „Mezon uz-zamon“, „Tarixi Farg‘ona“, „Tarixi madaniyat“ asarlarini yaratdi. Ushbu asarlarning mavzu ko‘lami, undagi dolzarb muammolar, asarning badiiy va ilmiy ahamiyati bugungi kun uchun ham qimmatlidir. Adib ijodining turli yo‘nalishlarida jamiyatning nuqsonlari, zamondoshlarining ilm-u irfon, taraqqiyotga to‘sqinligi, farzandlarini ilmi qilish o‘rniga keraksiz narsalarga sarf-xarajat qilayotganligi, bir so‘z bilan aytganda, ularning kamchiliklarini tanqid qildi.

Tadqiqot obyektimiz hisoblangan „Mezon uz-zamon“ asari badiiy uslubda, jimjimador bo‘yoqlar bilan yaratilgan emas, ammo uning qiymati, darajasi juda yuksak. Unda ham davr kamchilik va illatlari, „avvalgi zamon va keyingi zamonlar“ muqoyasa qilinadi. Mazkur asar 9 mezon va muqaddimadan iborat bo‘lib, har bir mezonda davrning bir nuqsoni, kamchiligi haqida fikr yuritiladi. Adib muqaddimada asarni yozma bayon qilish sababini shunday yozadi: „Savt ila aytilsa, bir samo‘

¹ Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 277.



eshitub tamom bo'lur, har bir ahli savod ko'rub o'qusa, amri ma'ruf bo'ladur. Biz qilib turg'an xizmat keyingi asrlarga ham xizmat etar umidinda bo'lub qalam yurguzduk...²

Muallif „mezon – barobar qiladur gon tarozudur... Biz bu mezon ila o'z asrimizni tortamiz“³ deb yozadi birinchi mezonda va davrining ma'qul hamda noma'qul ishlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, islom elining „juz'iy so'zlarga kulli janjal qilinib, baynal-ulamo ixtilof bo'lib“ yurishini, „bu mustahab, bu muboh deb... mustahab ila makruhni“ janjal qilib, avval ko'rmagan narsalaridan qo'rqib, qochib, ularni harom deb, ushbu ashyolar „urf-u taomil bo'lgach“ birinchilardan olib ishlatishlarini, „ulomolardin amri-ma'ruf, ag'niyodin ehson, binoyi xayr-u imdod, fuqaro va umumu-n-nosdin harakat“ darkorligini, ammo ularning barchasi „nafs xizmatida bo'shamay, dunyo qilmoq, imorat, hasham manfaati“ uchun harakatda ekanligini ta'kidlaydi. Ibrat xalqning bunchalik taraqqiyotdan, yangiliklardan qo'rqishiga, ularni hayotiga kiritishi juda qiyin kechishiga sabab „beimlikdan, shahar ko'rmogonlikdan“, deya ta'riflaydi. Zamondoshlarini ilm olishga, o'qib-o'rganishga chorlar ekan, muqaddas kitobimiz Qur'oni Karim oyatlaridan, hadislardan misollar keltiradi. Jumladan: „Al ilm-u izzud-dunya va sh-shaarafu-l-oxirati“, „Utlubu-l-ilma va lav kana bi-s-Siyn“⁴ (Xitoyga borib bo'lsa-da ilm talab qiling) hadislarini keltirib, ilm olish ham farz ekanligini uqtiradi. Bolalarning o'qishi uchun maktab-madrasalarning nechog'lik darkorligini yaxshi bilgan adib shunday yozadi: „Ilm-u hunar bo'lsa, maktab-madrassa birla bo'lur. Bu asbobi ilmlar hech biri bizda yo'q uchun hama umurimizda usr bo'lgan. Emdi dunyo va oxirat rohati ilm ekan, nimaga o'qutmadukki, bizdan keyingi avlodlarimiz rohatda bo'lmadilar“⁵. Bundan tashqari, zamonaviy texnikalar inson og'irini yengillatuvchi ashyolar ekanligini, ulardan qochish emas, aksincha foydalanish lozimligini, hatto dinimiz ham insonlar yaxshi yashashi, oson turmush kechirishini xohlashini ta'kidlar ekan, quyidagilarni qayd etadi: „Olloh taolo bizga yusr(osonlik)ni xohlagon, usr(qiyinlik)ni xohlagon emas. „Yuridullohu bikum ul-yusro va la yuridu bikum ul-usro“ desa, biz o'zumizni o'zumiz qiyinlikka solgan. Xudo solgan deb qiyinlikdan chiqmay yurishimiz mani Xudo shunday qilgan deb iymonga kelmagan qabilindandur. Agar bid'at deb taqvo qiladur gon bo'lsangiz, bul bid'at bo'lsa, bid'at emas nimarsa qaysi? Chakana fikr ila musulmonchilik muddaog'a yetib bo'lmaydur“⁶.

² Dolimov U., Jabborov N. Is'hoqxon Ibrat. – Toshkent: Zabarjad media, 2022. – B.170.

³ O'sha asar. – B. 170.

⁴ O'sha asar, – B. 172.

⁵ O'sha asar, – B. 173.

⁶ O'sha asar, – B. 173.



Birinchi mezon ilm olish, yangiliklarni ijobiy qarshilash haqida bo'lsa, **ikkinchi mezonda** yolg'onchilar, o'g'rilar, zinokorlar, fitnachilar, namoz va zakot, haj, birodarlik, ittifoq haqida so'z yuritiladi. Mazkur mezon musulmonlarni nifoqdan qochishga, birlashish, ittifoq, mashvarat va hamkorlikka chaqiradi. Ularga oid oyat, sura hamda hadislardan misollar keltiradi. Mezon haqida Rasulbek Ummatov „Is'hoqxon to'ra Ibrat. Tarixi Farg'ona. Ibratning ijodiy faoliyati“ maqolasida shunday fikrlarni keltiradi: „...adib ikkinchi mezonda odamlarni guruhbozlikka berilmasdan, birlashib yashashga chaqiradi. Bu to'g'rida marhum va mashhur shoirimiz Muhammad Yusuf ham: „O'zbekni o'ldirar mahalliychilik“, deya nazmiy taassuf bildirgandi. Tabiiyki, millatning guli bo'lgan o'tkir qalam sohiblari bu kabi nuqsonlarga befarq bo'lishmagan“⁷.

Oloh taoloning „ro'yi zaminga xalifa qilaman“ deb maloyikalar bilan mashvarat qilishi voqeasini bayon qilib, Uning mashvarat qilish sababini shunday izohlaydi: „*mashvaratga muhtoj emas edi. Nima uchun mashvarat qildi? Magar ularga mashvarat odobidan ta'lim bermoqni iroda qildi*“⁸.

Mo'minlarning bir-biriga birodar ekanligi, ular o'rtasida nifoq vujudga kelgan taqdirda sulh qilish lozimligi, ikki kishi o'rtasida fitna qilmoq odam o'ldirmoqdan yomonroqligi, kimki o'g'rilik qilsa, qo'llarini kesish lozimligi, chunki u „birodariga nifoq qilgan“ bilan barobarligi, zinokor xoh er, xoh ayol bo'lsin yuz qamchi urish darkorligi, negaki fasod ish qilganligi kabi ma'lumotlarni „Hujurot“, „Baqara“, „Moida“, „Nur“ suralari orqali dalillab beradi. Shu bilan birga, namoz, zakot haqida so'z yuritib: „*Va aqimu-s-solata va atu-zakot*“, ya'ni namoz o'qinglar va zakotni ado qilinglar“. Haj ziyoratiga bormoq haqida: „*Va illahi ala-n-nasi hujjal-bayti man astato'a ilayhi sabila*“, ya'ni hajga boringlar qodir bo'lsalaringiz“ degan oyatni keltiradi. Yolg'onchilar haqida: „*Fanaj'al la'natullohi alal-kozibiyn*“, ya'ni qaror berdim, Xudoning la'nati yolg'onchilar. Chunki yolg'onchi nifoqni oshkor qilur“.

Shuningdek, mezonda mo'min inson qanday bo'lishi haqida ham fikr yuritilgan: „*Almu'minuna hayyinun va layyinun*“, ya'ni mo'min ul kishidurki, muloyim va narmxilat bo'lur“. Ushbu hadisdan so'ng mo'min insonning xislat hamda vazifalari haqida so'z yuritilgan, ularni tana a'zolariga qiyoslagan: „...*a'zolaringizdagi ko'z, quloq, qo'l, oyoqlaringiz hamasi bir-biriga xizmat va yordam qiladur. Sizlar ham badan a'zosini bo'lganda har biringizga ittifoq va yoriy beringizlar. Qarangki, a'zoyingizda mahali qozurot bo'lgan eng past fahm qilgan bir yeringizki qorun edi,*

⁷ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ishoqxon-ibrat-tarixi-fargona.html>

⁸ O'sha asar, – B. 176.



*muni agar bir kishi yorsa, hayotingiz tamom bo'ladur. Shunga o'xshagan insonning har a'zo, har fardi biridan judo bo'lsa, ehtimol, halok muqarrardur*⁹.

Uchinchi mezon zamona ahlining hiylakorligidan shikoyat tarzida yozilgan. Mezonda amaldorlarning o'z manfaati yo'lida turli xil makr-hiylalar qilishini misollar bilan keltirib o'tgan. „... yigirma tiyin gazlamalarini(ng) olti gazini uch so'mg'a oldikmu deb amrulloh'g'a hiyla qilurlar. Uchinchisi, bonkdan olgan aqcha qancha firusent bo'lsa bebay'. Ani xalqg'a berilgan behujjat aqchalarg'a bonk firusentlarini chochub solib oladurlar“¹⁰. Mazkur misoldan shuni anglash mumkinki, tama'gir, ikkiyuzlamachi amaldorlar o'z manfaati uchun xalqdan ustamonlik bilan foydalanganlar. Xat-savodsiz, omi xalq esa ular nima desa haq deb bilganlar. Bundan tashqari, o'sha davrda ommalashib borayotgan paxta tijoratidagi nayranglar ham ayovsiz fosh etilgan: „...paxta tijoratiga o'rangan kishilarda shariati islomiyaga muxolif uch katta gunoh muayyandur. Muni hech tujjor ulamodan so'ramaydur. Chunonchi, birinchisi, tarozuda kam olmoq. „**Va iza kaluhum av vaza-nuhum yuxsirun**“dan vahmlari yo'q. Ikkinchisi xiyonatdurki, sotquvchi rizadosidan tashqori partav degan olumlari bor puddan bir qadoq. Bu odat o'rnig'a kechubdurlar va nimasiz bechora madyun mazlum turadur. Uchinchisi, paxta berolmagan kishiga summasiga 55 tiyin ishtiروف hisob qiladurlar“¹¹. Adib bu kabi nohaqliklarni ko'ribilib turgan ulamolar, mashoyixlarning „o'z mayishati va hashamlarig'a ovvora bo'lub“ hech narsa qilmasliklaridan ranjiydi. Qozilarning esa „ehtiyoji xalqullohdan va hukumat savolidan bo'shamay, xalqg'a amri ma'ruf qilmoqqa vaqtlari yo'q“ ekanligini, bu ish o'z boshidan ham o'tganligini ta'kidlaydi.

To'rtinchi mezon zamonaviy texnikalar, yangiliklar xususida. Ushbu mezonda xalqning yangi yaratilgan ashyolardan dastlab qo'rqib, qochib yurishi, keyinchalik ulardan doimiy foydalanishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Samovarni ilk marta ko'rgan insonlar: „bu alomati qiyomatga o'xshar. Na uchunki, ajabo, o'tni ham soladur, suvni ham soladur, bir-biriga aralashmas. Yangi ko'rgan kishilarga ani(ng) xojasi jo'mragidan suv tushursa, dudi chiqub turubdur. Subhanolloh, bu qanday sehrdur“¹², deb taajjublanadilar. Is'hoqxon birinchilardan bo'lib lampochka olganida uni ko'rgani kelgan odamlar „guhar shabchirog' degan shul emish“, „shamdek har bir soatda muncha martaba uchini kesmas ekan va shamdek oqub ketmas ekan, birdek doimiy yonub turar ekan“ deb hayratlanib olqishlaganida „soddadil mullolar“ „Buni(ng) ravshanida o'lturub bo'lmaydur, yog'i harom emish. Insho nasroniydur,

⁹ O'sha asar, – B. 176-182.

¹⁰ O'sha asar, – B. 183.

¹¹ O'sha asar, – B. 183.

¹² O'sha asar, – B. 185.



alalxusus masjidga qo'yub bo'lmaydur“, demishlar. Qarangki, oradan „... besh yil o'tdi-o'tmadi, o'shal mullolar hama sham' va chirog'ni tark qilib, o'zlari olib iste'mol etdilar“¹³.

Mezonda „ibtidoyi olamdan intihog'acha bo'ladurgon nimarsalar hamasi“ Qur'on oyatlarida bayon qilinganligini zikr etib, ibratli bir hikoyat ham keltiradi: „Farg'onadan bir vaqt ulamo majlisida paraxo'dlarni(ng) oyatda zikri bormu yoki yo'g'mu, deb mukodama bo'lganda bir kishi bir yuz ellik so'm oqchani har kishi otidin hujjat topib bersun, berurman deganda, hama ulamo hadyani chiqorong, deydur. Darhol oqchani o'rtaga chiqorganda, ulamo olub, karmonga solub, bu oyatni o'qugon ekan: „**Fil-fulkil-mashhun va xolaqna la-hum min mislihi ma yarkabun**“ („Yosin“ surasi, 42-oyat. Yana Biz ular uchun o'sha (kemaga) o'xshash (boshqa) nimadigan narsalarni (ya'ni katta-kichik narsalarni) ham yaratdik). Ulamolar hama hujjat shuldur, deb qabul qilgon ekan“¹⁴. Adib Olloh insonlarning suvda yurishi oson bo'lishi uchun kemani yaratganligini, ammo bugungi ulamolar ularga yengillik bo'lgan har narsadan: „inshooti jadidalar“dan, avval ko'rmagan narsalari bo'lsa ulardan „parhez“ qilib yurishlari, agar qo'shnisi yoki qarindoshlaridan biror kim mazkur ashyolarni ishlatgudek bo'lsa, darhol foydalanishini aytib o'tadi. Madaniylik va badaviylik haqida fikr yuritar ekan: hech bir tarixchi Hazrati Odam „imoratlari betondan yoki toshdan yoki yog'ochdan“, „uch oshyona yoki bir qabatdan“ iboratligi haqida ma'lumot keltirmaganligini, ammo „od, samudlar asrida bir madaniyat topgani Qur'onda xabar berilgan“ligini, fir'avn davrida, undan so'ng rasululloh davriga kelib madaniyat yana bir daraja yuksalganligi ta'kidlaydi. Bu bilan adib yillar, davrlar o'zgarishi bilan insonlarning yashash tarzi ham, madaniyat ham o'zgarib borishini uqtiradi. Lekin zamondoshlarining haligacha eskilik tarafdori bo'lib, yangiliklarga yomon munosabatda bo'layotganligidan ranjyidi. Yangi usul maktablari, unda berilayotgan ta'lim haqida bir voqea orqali ma'lumot berib o'tadi. Unda Marg'ilonlik bir muallimning darsi shariat ahkomlariga zid ekanligi, shu sababli bolalarga dars o'tishi joiz emasligi aytiladi. O'qituvchi qozilar yonida dars o'tishini iltimos qilib so'raydi. Agarda shariatga, dinga zid ma'lumotlar o'rgatayotgan bo'lsa, shundan so'ng dars bermasligini aytadi. Muallim „Bad' ul-maorif“, „Avvali nazofa“ va „Shifohiya“ darslarini kelturub, biyron-biyron shogirdlarini savol-u javobga solub turganda, ulamolar va qozilar ko'zyoshi chiqib, rahmatlar aytub, bu usulda o'qutmak shar'iy ekan, deb hukm qildilar“¹⁵. Jadid so'zining ma'nosini yaxshi bilmasdan turib, uni tanqid qilgan ba'zi insonlar „usul deb

¹³ O'sha asar, – B. 185.

¹⁴ O'sha asar, – B. 186.

¹⁵ O'sha asar, – B. 188.



dinni aytur, usuli jadid demak yangi din demak“dir deb noto‘g‘ri talqin etganlar. Xuddi shunday insonlar yangi usulda o‘qitayotgan muallimlarning ustidan ig‘vo tarqatganlar. Bundan maqsad: „eski yo‘lda ovqat qilib turgan muallimlarning rizqi uzilar emish degan xayollari“ bo‘lgan. Yangi maktablar, ulardagi o‘qitish tizimi haqida gapirarkan, o‘zining ham uch adad muallimda o‘qub, oxiri savodi chiqmay o‘z uyida – joriy qizlar maktabida, onasining qo‘lida savod chiqarib, ikki yil otasidan husnixat o‘rganganligini, yetti yil umrini zoye etib, o‘qish-yozishni bilganligini aytadi.

Beshinchi mezon – „*xalqimizning avvalidagi harakatlari ila alholgi ishlarini vazn qilur*“¹⁶. Mazkur mezonda o‘tmish va o‘z davrini muqoyasa qilinar ekan, avvalgi insonlarni „bekor va tambal“, bugungilarni esa „ish-ish deb yugurusha boshladilar“, deya ta‘riflaydi. Ilgari „qora choyjo‘sh“ faqat „kattalar“ uylarida bo‘lgan bo‘lsa, endilikda har kimning uyida „besh-o‘n adad choynak, lamfa, samovar“ borligini, „palov, gurunj oshi“ haftada bir bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda, kunora bo‘layotganligi, mahallada bir-ikki kishida ot bo‘lgan bo‘lsa, „emdi oti yo‘q cho‘loq hukmi“daligini, „avvalgi hollarda sakson-to‘qson yillar amsok (sarf qilmay saqlab) qilib, ag‘niyo qatoriga bir shaharda bir yo ikki kishi“ kirgan bo‘lsa, hozir „besh yil tijorat qilib, yuz mingga qodir“ligini bayon qiladi va bularning barchasini madaniylik belgisi deb ta‘riflaydi.

Oltinchi mezonda bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo‘lgan mavzu: to‘y va ma‘rakalardagi ortiqcha sarf-xarajatlar haqida so‘z boradi. Dastlab janoza marosimidagi „mashaqqat“lar haqida so‘z yuritib, azadorning, eng avvalo, ma‘rakaga kelgan „boylarga bir so‘m, o‘rtalarga 50 tiyin, oxiri o‘n tiyindan, imomlarga to‘n ber“ishi lozimligini, hali bu chiqimlarning boshlanishi bo‘lib, bundan tashqari xarajatlar ham talaygina ekanligini ta‘kidlaydi. Mazkur jumlagi e‘tibor qarataylik: „*Voy otam, voy onam“ birla ovora, o‘shal kuni besh yuz sarf bo‘lsa, bir yil ichinda yana besh yuz sarf bo‘lur. Chunonchi, uch kundan so‘ng ma‘raka ishlari, katta sarf bo‘lur. Mahalla va g‘ayri mahalla xotunlari kelib, azo qilodur. Har kim o‘lganini aytub yig‘lar. Uchinchi kuni yetti degan ish. Xotunlarga munda ham yig‘i-sig‘i, ta-vajjuhgirlar kelur. Munda yana sarf. Panjshanba kuni kelib, shabi panjshanba degan osh ... endi o‘likka*“¹⁷. Birgina ma‘rakaga shuncha xarajat. Eng yomoni, oila bu chiqimlarga tayyormi, yo‘qmi, shu „urf-odat“ni bajarishi shart. Azador uchun u xoh otasi bo‘lsin, xoh onasi, xoh farzand yoki qarindoshi – yaqin insonidan ajralish bir dard bo‘lsa, janozani o‘tkazish, unga sarflanadigan xarajatlar undan-da og‘ir yuk

¹⁶ O‘sha asar, – B. 189.

¹⁷ O‘sha asar, – B. 191.



ekanligi mezonda batafsil keltiriladi. Shundan so'ng, to'ydagi dabdababozliklar, kim o'zarga to'y qilish, undagi isrofgarchiliklar haqida bayon qiladi. Xususan, „*bir kishi o'g'lini taalluq qildurmoq bo'lganda fotiha to'y degan bir katta to'y bo'ludur. Munda bor ajnosidin bir kiyimlik, ya'ni 8 gazdan – har jinsdan bir donadan solub, miyonalar to'rt qo'y, butun qand, butun doka, bunga o'xshash nimarsalardan har birin bir laganga solub, ko'chadan ko'tartub, qudasini(ng) uyiga olib borur. A'yondan kattalar, mahalladan ham imomi mahallag'a borurlar. Bularga a'la qadri hol to'n kiydurub chiqorur*“¹⁸. Bu – fotiha to'y uchun qilinadigan sarf. To'y uchun hali bundan-da katta xarajat bo'lishi turgan gap. Achinarlisi, „Bu sarflarni(ng) o'g'liga va qiziga biron tiyin naf'i yo'q, o'rtadagi kishilar yeydur, ichadur, kiyadur“. Muallifni o'ylantirgan, tashvishga solgan bu holat, afsuski, bugun ham davom etmoqda. Ota-onalar pullarini farzandining istiqboli yo'lida sarflash o'rniga „el og'ziga tushish“ uchun bir kunlik to'yga sarflaydilar.

Adib o'sha davrlarda urfga aylanayotgan choyxonalar haqida shunday yozadi: „... *xalqimizda choyxona degan ismni samovar deb yuritarlar*“, odamlar „*ko'k choyga mubtalodurlar. Uylarida bo'lsa ham mundin ortiq shaydo emishlar*“¹⁹. Kishilarning choyxonalarda vaqtini bekor o'tkazishlari, eng og'ir gunohlardan bo'lmish g'iybat bilan mashg'ul bo'lishlari, tabiiyki, adibni ranjitadi. Modomiki, odamlar choyxonalarda yig'ilayotgan ekan, u yerda „*kitob, mas'ala o'qulsa*“, kitobxonlik davralari tashkil etilsa, yaxshi bo'lishini e'tirof etadi. Shu o'rinda, muallif choyxonalarda bekor o'tirib kun o'tkazayotgan insonlardan ko'ra „*turmada yotgan mahbuslarni(ng)*“ foydasi ko'proq ekanligini, chunki ular „*to'ffi yoki shalvor*“lar tikib yo boshqa bir hunar o'rganib jamiyatga nafi tegishini ta'kidlaydi. Shu o'rinda, muborak dinimizga ham murojaat etib, hech bir payg'ambar va yoki avliyo behunar o'tmaganligini, ilm olishga intilmasalar, hech bo'lmaganda, kasb-hunar o'rganishga g'ayrat solsalar, ayni muddao bo'lishini uqtiradi.

Xalqimizning har bir narsaga shubha bilan nazar solib, yomon, bid'at, nodurust, makruh, harom deb, ulardan tiyilishlariga, har ishga ikkilanish, xavotir bilan qarashlariga qarshi adib: „...*bid'atmu, agar bid'at bo'lsa, gugurd yoq mang, kerosinni tark qiling, choy ich mang, qand yemang – bular ham payg'ambar asrlarida yo'q edi. Vaholanki, hamma kiyib turgan liboslaringiz ajnabiylar ishidur*“²⁰ deydi. Aslida „*ajnabiy taomidan va libosidan, ashysidan*“ saqlanish „*mo'g'uliylar fe'li*“ ekanligini qayd etadi. Mezonda „*rasm ila suratni farq*“ qilmaydigan kimsalarning nodonligidan, johilligidan ranjigan adib „*e'tiborli bir kishining hovlisi*“da bo'lgan mehmondorlik

¹⁸ O'sha asar, – B. 192.

¹⁹ O'sha asar, – B. 193.

²⁰ O'sha asar, – B. 194.



voqeasini keltiradi va surat hamda rasmga ta'rif berib o'tadi. (*Surat jismlik soyasi tushadigan narsa, haykal, rasm – chizib qilingan soyasiz narsa*)²¹.

Is'hoqxon jamiyatdagi bu va bunga o'xshash voqealarni „matbuot vositasi qalam ilan aytsa“, „aksak bu ulomolar jaridotlar (gazeta, jurnal)ni ham bid'at va harom bilib, ahli ilmni o'qumoqdan, avomunnosni eshitmakdan man' qil“ishini yozarkan, „Farg'onada bu ilmi jarida ham yo'q“ligini ta'kidlaydi.

Yettinchi mezon haqida ibratshunos olim Ulug'bek Dolimov „Is'hoqxon to'ra Ibrat“ asarida hamda Toshkent islom instituti Axborot-resurs markazi kutubxonachisi Boboravshan Rasulov „Zamonlar qo'ng'irog'i“ maqolasida „yettinchi va sakkizinchi mezonlar libos borasidagi munozaralar xususida, o'sha davrdagi odamga emas, libosga ixlos qo'yishning, dunyoparastlikning yomon oqibatlari haqida“²² deb keltiradilar. Biroq mazkur fikrlar aslida sakkizinchi mezonga xos bo'lib, yettinchi mezonda har kimning zamonga mos tarzda kiyinishi, ilm egallashi haqida, hech kim „zamonning ziddig'a ish yurguzmoqqa qodir emas“ligi, Aliyyul Murtazo aytganidek, avlodlarni kelajak ilmi bilan tarbiyalash darkorligini, uzoq safarga borish kerak bo'lsa, poyezd yoki qang'li qalmoq chiqargan sartiya aroba turganda hech kim piyoda yurmasligini, „gugurt yoqmang, chaqmoq chaqing desa, albatta, ma'qul bo'lmas“ligini bayon qilinadi. Ya'ni har kim zamonasiga mos bo'lmog'i lozimligini uqtiradi va forsiy bir bayt keltiradi:

Zamona bo tu nasozad

*Tu ba zamona basoz*²³.

(„Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq“ mazmunida)

Ibrat davrni bir otaga qiyoslarkan, otasining amrida yurgan yoki so'zini olmay, ittifoq qilmagan farzandlarni esa zamon o'zgarishini qabul qilgan va qilmagan insonlarga o'xshatadi. Otasiga itoat etganlar – zamon ilmini egallab, yuksalayotganlar; qarshi chiqqanlar – ilm-u irfondan mahrum, taraqqiyotga g'ov bo'layotganlar ekanligini ta'kidlaydi. Adib zamondoshlarining ham noqobil farzand qatorida ekanligidan, „otalari nasihatiga qachon“ amal qilishlaridan tashvishlanadi.

Sakkizinchi mezon libos haqida bo'lib, muallif zamonasi kimsalarini shunday ta'riflaydi: „bizni(ng) xalqni(ng) ixlosi libosga, odamga emas“. Agarda kishining „libosida dinga xabar bo'lsa“ g'ayridin bo'lsa ham odamlar unga etiqod qo'yadilar, ishonadilar, modomiki, „telfak yoki shilfa, yo fas yo bo'lak xil to'ffi kiygan bo'lsa, ani Boyazid yoki shul kishi Bahovuddin desangiz“ ishonmaydilar. Mana xalqimizning ahvoli. Makzur fikrning tasdig'i o'laroq bir voqea bayon qilinadi. Unda

²¹ O'sha asar, – B. 195.

²² Dolimov. U. Jadidlar. Is'hoqxon to'ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B.69.

²³ Dolimov. U., Jabborov N. Is'hoqxon Ibrat. – Toshkent: Zabarjad media, 2022. – B.196.



yahudiy kishi „mo‘ylabni oldurub, katta tasbih ushlab“ aholi orasida „Buxorodan kelgan katta shayx deb shuhrat“ qozonadi. Keyinchalik uning kimligi ayon bo‘ladi va qochib ketadi. Bu bilan muallif zamondoshlarining odam botiniga e‘tibor qilmay, zohiriy ko‘rinishiga aldanib qolishini, ularning bu soddaliklaridan ko‘pchilik foydalanib qolinishini ko‘rsatib beradi. Adib kishining kiyimiga qarab muomala qiladigan insonlarga qarata quyidagi jumlaning keltiradi: „*al iymanu iqrorun bil-lison va tasdiqun bil-qalb, ya’ni islom manbalarida keltirilganidek iymon til bilan iqror bo‘lib, qalb bilan tasdiqlashdir, demay, al-iymanu qalansuvatu-l-arabi va jubbatuhu-t-tijoriya, ya’ni iymon arabcha kiyim-u ko‘rinishda der edilar*“²⁴. Shuningdek, mezonda xalqimizning ixlos-la kiyib yurgan kiyimlari ham aslida mo‘g‘ulcha, eski xitoycha liboslar ekanligini, „majusiy telfak, qolfoqlar“, xitoycha ko‘ylaklar odat-u, Yevropa liboslari mumkin emasligi, ya’ni ulardan saqlanib kelinayotganligini bayon etadi va „mamlakatimizda sunnat liboslar yo‘q amomadan bo‘lak“, deb fikriga yakun yasaydi.

To‘qqizinchi mezonda o‘tgan asrlar haqida so‘z yuritiladi. U davr insonlarining yashash tarzi, ijtimoiy ahvoli, to‘y-ma‘rakalari, iftorlarni qay holda tashkil etganliklari haqida ma‘lumot keltiriladi. Mazkur mezon oltinchi mezon bilan muqoyasa qilinishi mumkin, negaki bu mezonda avvalgi zamonlarda kamxarjlik, kamchiqimlik bo‘lganligi haqida aytilgan bo‘lsa, oltinchi mezonda ma‘raka va to‘ylardagi „sarfi behuda“lar haqida fikr yuritiladi. Biroq adib o‘zi asarda mazkur mezonni ikkinchi mezon bilan qiyoslaydi: „Mana bir asrni(ng) mezoni! Farq: ikkinchi mezondagi sha’n-shavkat, sarfi behudalarni o‘qudingiz. Mana balvo! Mana tabodil! Mana mezon!“ Ammo ikkinchi mezonda „millatni turli firqalarga ajratishdan qaytarish, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish, ittifoq va ittihadga chaqirish“ kabi masalalar yoritilgan. Ko‘rinib turibdiki, bu ikki mezon mavzusi jihatidan bir-biriga yaqin yoki zid emas. Ibrat mezon yakunida bu bir asrning mezoni ekanligini, agar „hama ahvoldin yozmoq bo‘lsa, har asrning necha jild bo‘lmog‘i muqarrar“ligini qayd etadi.

„Asar matni ustidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, u tugallangan emas. lekin shu holda ham „Mezon uz-zamon“ Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlari ichida o‘ziga xos o‘rin tutishini anglash mumkin“²⁵. Darhaqiqat, asarda qalamga olingan muammolar, kamchiliklar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Umuman, har bir mezon yakunida qisqa xulosalar berilgan bo‘lib, ularda o‘qishga, o‘rganishga, ilm olishga, fikrlashga da‘vat sezilib turadi. Masalan, birinchi

²⁴ Rasulov. B. Zamonlar qo‘ng‘irog‘i. 2023. <https://oliymahad.uz/39001>

²⁵ Dolimov. U. Jadidlar. Is’hoqxon to‘ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B.69.



mezonda: „Bas, o‘qung, hunar kasb etmak uchun harakat darkor ekan, ko‘rub turibsiz“, ikkinchi mezonda: „o‘ranmoq kerak, tanballik ila maqsadga erishilmaz. O‘ranung, o‘ranung, o‘ranung“ xitoblari yangraydi. Bu kabi fikrlar barcha mezonlar yakunida keltiriladi. Mazkur asarning qiymati shundaki, uning deyarli barcha mezonlaridagi muammolar hanuzgacha dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Ayniqsa, oltinchi va sakkizinchi mezonlardagi holatlar hech bir o‘zgarishsiz kelayotganligi ham hayratlanarli, ham achinarli hol. Bir asrdan oshiqroq vaqt mobaynida xalqimiz ong-u tafakkurida shuncha o‘zgarish bo‘lsa-da, ammo to‘y-hasham, ma‘rakalarni kim o‘zarga o‘tkazayotganligimiz, insonning libosi, mansab-u martabasiga qarab muomala qilayotganligimiz, farzandlarning ilmi-hunarli bo‘lishi uchun sarmoya kiritish o‘rniga, shohona to‘y-bazmlar o‘tkazishga harakat qilayotganimiz, mutafakkirning ancha yillar oldin aytgan behuda sarf-xarajatlarni hozirgacha saqlab kelayotganligimizning o‘zi katta xatolarimizdandir.

Haqiqatdan ham, adibning ijtimoiy mavzulardagi qarashlari, xususan, to‘y-ma‘rakalardagi ko‘p xarajatlilikni „ustimizdagi og‘ir bir yuk“ deb ta‘riflaganida naqadar haq ekanligini bugun ko‘rib turibmiz. Shu bois ham asar davr tanlamagan holda jamiyatning barcha qatlamlari o‘qishi uchun munosibdir. Zotan unda ko‘tarilgan muammolar, kamchiliklar, xatolar barchamizni xulosa chiqarishga, ularni bartaraf etishga undaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Dolimov. U. Jadidlar. Is‘hoqxon to‘ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Dolimov U., Jabborov N. Is‘hoqxon Ibrat. – Toshkent: Zabarjad media, 2022.
3. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
4. <https://oliymahad.uz/39001>
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ishoqxon-ibrat-tarixi-fargona.html>